

MINGLAR SULOLASI DAVRIDA QO‘QON XONLIGINING QO‘SHNI DAVLATLAR BILAN TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARI

Berdiev Abduvali Abdug‘aniyevich

Tarix fanlari nomzodi (PhD), O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
<https://orcid.org/0009-0003-6958-0605>

Anotatsiya. Ushbu maqolada Minglar sulolasi davrida Qo‘qon xonligining qo‘shni davlatlar bilan tashqi diplomatik aloqalari XVIII-XIX asrlarda va o‘zaro elchilik munosabatlari haqida ayrim ma’lumotlar o‘z aksini topgan. Qo‘qon honligining iqtisodiy hayotida tashqi savdo ham muhim ahamiyat kasb etgan. Mamlakat g‘arb va janubda Buxoro, Xiva, Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, sharqda Xitoy (Koshg‘ar orqali), shimolda Dashti Qipchoq ko‘chmanchilari va ayniqsa Rossiya bilan keng savdo aloqalari o‘rnatgan.. Toshkentning xonlik tasarrufiga kiritilishi bilan Rossianing Qo‘qon xonligiga kirib borishi ancha jadallahsgan va tashqi iqtisodiy aloqalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar orqali to‘liq tasavvur qilishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: sayyoh Muhyi, Istanbul, Kosonsoy, Mo‘yi Muborak darvozasi, Filipp Nazarov, Qo‘shqo‘rg‘on, Chimqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on, Aziatskiy Vestnik, Daraut-Qo‘rg‘on, Qizil-Qo‘rg‘on, So‘fi-Qo‘rg‘on, V.Velyaminov-Zernov, Troitsk, G‘ulja, A.P.Teterevnikov.

ВНЕШНЕДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ КОХАНСКОГО ХАНСТВА С СОСЕДНИМИ СТРАНАМИ ВО ВРЕМЕНА ДИНАСТИИ МИН

Бердиеев Абдували Абдуганиевич

Кандидат исторических наук (PhD), Начальник учебно-методического отдела

Аннотация. В данной статье отражены некоторые сведения о внешнедипломатических отношениях Кокандского ханства с соседними странами во времена династии Мин в XVIII-XIX веках и взаимных дипломатических отношениях. Внешняя торговля также играла важную роль в экономической жизни Кокандского ханства. Страна установила обширные торговые отношения с Бухарой, Хивой, Афганистаном, Ираном, Турцией, Индией на западе и юге, Китаем (через Кашигур) на востоке, поселенцами Дашиби-Кипчака на севере и особенно с Россией. С включением Ташкента в состав ханства проникновение России в Кокандское ханство ускорилось и позволяет вполне представить себе через информацию о ее внешнеэкономических связях.

Ключевые слова: турист Мухы, Стамбул, Косонсой, Ворота Мойи Мубарака, Филипп Назаров, Кошкурган, Чимкурган, Янгикурган, Азиатский вестник, Дараут-Коргон, Кызыл-Курган, Суфи-Курган, В. Вельяминов-Зернов, Троицк, Кульджса, А.П. Тетеревников.

FOREIGN DIPLOMATIC RELATIONS OF THE KOKHAN KHANATE WITH NEIGHBORING COUNTRIES DURING THE MING DYNASTY

Berdiev Abduvali Abduganievich

Candidate of Historical Sciences (PhD), Head of educational and methodological department

Annotation. This article reflects some information about the foreign diplomatic relations of the Kokand Khanate with neighboring countries during the Ming Dynasty in the 18th-19th centuries and mutual diplomatic relations. Foreign trade also played an important role in the economic life of the Kokan Khanate. The country established extensive trade relations with Bukhara, Khiva, Afghanistan, Iran, Turkey, India in the west and south, China (via Kashgar) in the east, Dashti-Kipchak settlers in the north, and especially with Russia. With the inclusion of Tashkent into the Khanate, Russia’s penetration into the Kokand Khanate accelerated and allows us to fully imagine through information about its foreign economic relations.

Keywords: tourist Muhyi, Istanbul, Kosonsoy, Moyi Mubarak Gate, Philip Nazarov, Koshkurgan, Chimkurgan, Yangikurgan, Aziatsky Vestnik, Daraut-Korg on, Kyzil-Kurgan, Sufi-Kurgan, V. Velyaminov-Zernov, Troitsk, Gulja, A.P. Teterevnikov.

Kirish

Minglar sulolasi davrida Qo‘qon xonligining qo‘shni davlatlar bilan tashqi diplomatik aloqalari, unga

haqqoniy baho berish va to‘plangan tajribadan ijodiy foydalanish mustaqil O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy – siyosiy va madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston tarixini, xususan Minglar sulolasi davrida Qo‘qon xonligining qo‘shni davlatlar bilan tashqi diplomatik aloqalarini tarixini har tomonlama o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu bois ham, so‘nggi yillarda O‘zbekiston tarixinining qator dolzarb masalalarini o‘rganishda aniq va haqqoniy tarixiy yondashuv masalasi muhim bo‘lib bormoqda.

Dolzarbligi: Mustaqillik jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan ijtimoiy fanlarda ham tub o‘zgarishlarga asos soldi. Ayniqsa, tarix fanining nazariy-uslubiy asoslari, uning maqsad va vazifalari tubdan o‘zgardi. Har qanday jamiyat hayotida bunday tub, olamshumul o‘zgarishlar bosqichma-bosqich, ba’zan bir necha o‘n yilliklar va hatto asrlar davomida amalga oshadi. Shu bois tarixiy o‘tmish saboqlarini hisobga olmasdan, mintaqamizdag‘i xalqlarning tarixiy tajribasidagi ijobjiy va salbiy jihatlarni churur ilmiy tahlil qilmasdan, shu jumladan, O‘rta Osiyo davlatchiligi tajribalarini o‘rganmasdan, bugungi kunda buyuk deb ta’riflash mumkin bo‘lgan hozirgi islohotlarning mohiyati va ahamiyatini to‘liq tushunish va baholash mumkin emas. Hozirgi zamonaviy bosqichda tarixiy bosib o‘tilgan yillarga qayta nazar tashlash ilmiy tadqiqot olib borishda zaruriy jihatlaridan biridir.

Minglar sulolasi davrida Qo‘qon xonligining qo‘shni davlatlar bilan tashqi diplomatik aloqalarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqollani yozishda mahalliy manbalardan va rus sayyoohlari, diplomatlari va elchilarining bergen ma’lumotlaridan, nashr qilingan rus va o‘zbek tilidagi kitoblardan keng foydalanildi.

Metodlar: Minglar sulolasi davrida Qo‘qon xonligining qo‘shni davlatlar bilan tashqi diplomatik aloqalarini yo‘lga qo‘yilishi, munosabatlarning davriy o‘zgarishlari, elchiliklarning maqsad va o‘zaro munosabatlardagi ahamiyati va boshqa jihatlarni yoritish va ilmiy xulosa qilish maqolla oldiga qo‘yilgan asosiy masala va farazlar hisoblanadi. Maqollani yozish jarayonida tarixiylik, xolislik, davriy izchillik, qiyosiy, tanqidiy, mantiqiy va xronologik, usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari:.. Minglar sulolasi davrida Qo‘qon xonligining qo‘shni davlatlar bilan tashqi diplomatik aloqalar, O‘zbekiston tarixi fanining muhim va o‘ta dolzarb ilmiy yo‘nalishlar doirasiga kiradi yevropalik sayyoh, elchi, savdogar va boshqa mualliflarning o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda kechgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy jarayonlarni nisbatan xolis yoritganliklari, o‘zga din va madaniyat vakillari sifatida voqeliklarga “o‘zgacha bir nazar” bilan qarab baho berishgani ko‘rsatib berilgan, yevropalik mualliflarning so‘nggi o‘rta asrlardagi O‘rta Osiyo davlatlari tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlar boshqa tillarda yozilgan va biryoqlama yoritilgan ayrim tadqiqotlar ko‘rib chiqilib, xonliklarning diplomatiya bilan bog‘liq bir qator masalalariga anqlik kiritilgan, uning turli jihatlari har tamonlama o‘rganildi va nazariy xulosalar, ilmiy natijalar olindi. Maqollada keltirilgan faktlar, ilmiy umumlashma va xulosalardan manbashunoslik, tarixshunoslik fanlarini o‘qitish jarayonida, amaliy mashg‘ulotlarda, darsliklar yozishda hamda o‘lkashunoslik to‘garaklarida foydalanish mumkin.

Asosiy qisim: Qo‘qon xonligi qulay geografik sharoitda, karvon yo‘llari ustida va dehqonchilik qadimdan topllangan hududda joylashganligi sababli taraqqiy etgan edi. Xonlikning markazi va bosh shahri bo‘lgan Qo‘qonga oid ma’lumotlarga ko‘ra, uning yoshi 2000-yildan ortiqdir. Qo‘qon shahri XVIII – XIX asrning birinchi yarmida nafaqat xonlikning, ayni paytda O‘rta Osiyoning ham yirik shaharlaridan biri edi. O‘tmishda Qo‘qon shahri bir necha marta dushmanlar tomonidan talanib, vayron qilingan. Ma’lumki, XIII asrda mo‘g‘ullar O‘rta Osiyonni istilo qilgan davrda juda ko‘p shaharlar vayron qilinib, yer bilan yakson etilgan edi. Shunday shaharlar orasida Qo‘qon ham bor edi. Shundan so‘ng Qo‘qon faqat 1709-yili qayta tiklangan va 1740-yilda shahar xonlik poytaxtiga aylantirilgan. Shahar mustahkam mudofaa devori bilan o‘rab olinib, xonlikning siyosiy, iqtisodi va madaniy markaziga aylantirilgan

Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyo xonliklari, qo‘shni Xitoy, Hindiston, Qirg‘iz dashtlari bilan jadal savdo munosabatlarini o‘rnatgan. Ammo, qo‘shni ikki davlat o‘rtasidagi XVIII va XIX asrlardagi aloqalar etarli darajada o‘rganilgan emas. Vaholanki, bu davr tarixini o‘rganish uchun muhim qo‘lyozma manbalar, rus sayyoohlari va elchilarining hisobotlarida qiziqarli ma’lumotlar mavjud. O‘rta Osiyo bilan Sharqiy Turkiston hamda Xitoy o‘rtasidagi XVI – XVII asrlarda mavjud bo‘lgan o‘zaro munosabatlar to‘g‘risida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror”, Sang Muhammad Badaxshiyning “Tarixi Badaxshon”, Mirza Olim Toshkandiyning “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin”, Niyoz Muhammad Xo‘qandiyning “Tarixi Shohruhiy”, Qurbon Ali Ayog‘uziyning

“Tavorixi xamsayi sharqiy” asarlarida noyob ma'lumotlar mavjud. Zahiriddin Muhammad Boburning Xitoydan kelayotgan Andijon karvonida ming odam bo'lgani haqidagi ma'lumoti bu ikki davlat o'rtaida iqtisodiy aloqalarning uzoq o'tmishga borib taqalishidan guvohlik beradi [1:81-b].

Qo'qon honligining iqtisodiy hayotida tashqi savdo ham muhim ahamiyat kasb etgan. Mamlakat g'arb va janubda Buxoro, Xiva, Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, sharqda Xitoy (Koshg'ar orqali), shimolda Dashti Qipchoq ko'chmanchilari va ayniqsa Rossiya bilan keng savdo aloqalari o'rnatgan. Ayrim manbalarda xonlikda yaponiyalik va angliyalik savdogarlar ham kelgani eslatib o'tiladi.

Qo'qon xonligi adabiy muhitida o'z obro'-e'tiboriga ega bo'lgan adib va sayyoh Muhyi ham mamlakatning tashqi siyosiy jarayonlarga tortilishida ma'lum bir ma'noda hissa qo'shib o'tadi [8]. Xususan, Hirotdagi ta'lim darajasidan ko'ngli to'Imagan Muhyi, ko'p o'tmay Buxoro madrasalaridan biriga kelib o'qiy boshlaydi. Bu yerda u arab tilini mukammal o'rganadi. 1850-yillar o'rtalarida Buxoro madrasasini tugatib, dastlab Farg'onaga, so'ngra Andijonga keladi. 1850-yillar oxiriga borib Qo'qon madaniy muhitiga kelib qo'shiladi, tez orada shoir va alloma sifatida shuhrat qozonadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, uni Qo'qondagi Mallaxon saroyiga xizmatga olishadi. Muhyi bu yerda ham obro'-e'tibor topadi. Hatto diplomatik ishlarga ham jalg qilinadi. U 1859 – 1861-yillar orasida xonning maxsus elchisi maqomida bir necha marta Afg'oniston va Hindistonga boradi. Yo'l-yo'lakay Turkiya, Eron singari mamlakatlarni ko'rishga muvaffaq bo'ladi. E'tiborli jihatni, u safar chog'ida qayerda atoqli olim yoki qalam sohibi borligini eshitsa, darhol uning huzuriga borib suhbat quradi. Albatta, shoir xizmat yuzasidan kezib chiqqan shaharlar xususida tuyg'ulari, kuzatuvlari aks etgan she'rlar ham bitadi. Shulardan biri hozirda Pokiston hududidagi Lohur shahri ta'rifi xususidagi “Dar sifati shahri Lohur ba tariqi badiha gufta shuda bud. Dar shahri Lohur” sarlavhali she'ridir.

Muhyi devonida uning turkum qit'alari bor. Bu qit'alar Turkiyaning Istarbul shahridan yuborilgan yigirmaga yaqin suratlarning tasviriga bag'ishlangan. Muhyi bu suratlarni xonning maxsus topshirig'i bilan Turkiyaga qilgan diplomatik safari chog'ida oldirgan. Suratlar telegramm orqali Qo'qonga yuborilgan. Bu haqda Muhyi qit'a avvalida shunday yozadi: “Ma'lum o'laki, ushbu qit'otni fit-tug'rof birlan olg'on Islombul tasvirining orqosig'a bayon aylab ma'lum qilmog' uchun aytib yozgon edim” [9].

Xonlikdan chet elga asosan ipak va ipak matolar, paxta, charm, qimmatbaho toshlar, oltin, kumush, zargarlik buyumlari va boshqa mahsulotlar chiqarilgan. Chet eldan asosan choy, metall, chinni, uyro'zg'or buyumlari, tayyor gazlama, kiyim-kechak, poyabzal va boshqalar keltirilgan.

Xonlikda Qo'qon, Toshkent, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlar mavjud bo'lib, ularda xo'jalik tarmoqlaridan hunarmandchilik sohasi keng ko'lamda taraqqiy topgan edi. Jumladan, Qo'qonda hunarmandchilikning quyidagi turlari bor edi: misgar, zargar, o'ymakor, qurolsoz, kulol, qog'ozgar, to'qimachi, do'ppi tikuvchi, kashtakach, ko'priksoz, temirchi, nonvoy, aravasoz, baxmalbof, bujgun, buyoqchi, gilkor, dorikash, jibachi, devorzan, degrez, yormado'z, ko'nchi, miltiqsoz, najjar, nayzagar, panjarasoz, pillakash, po'stindo'z, taqachi, to'brez, paranjido'z, chodirchi, chevar, chitgar, gilamchi kabilar. Qo'qon shahrida haftaning chorshanba va yakshanba kunlari bozor bo'lgan. Qo'qon xonligida keng tarmoqli hunarmandchilik sohasining rivojlanganligi uning qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalari o'rnatishga imkon yaratgan.

Zargarlikning rivojlanishiga Qo'qonga qarashli bo'lgan hududda oltin konlarining mavjudligi sabab bo'lishi mumkin. Masalan, oltin Kosonsoydan, Qoratog' shimolidagi Ko'krev daryosidan, Chirchiq daryosi bo'yaridan, Chotqol daryosi yuqori oqimlaridan olingan.

XVIII – XIX asrlarda Samarqandda qog'oz ishlab chiqarish tanazzulga ketayotgan davrda Qo'qonda qog'oz ishlab chiqarish yo'lga qo'yila boshlanadi. Bu mahsulot tayyorlash samarqandlik qog'oz ishlab chiqaruvchi ustalarining Qo'qonga ko'chib kelishi bilan bog'liq. Buning natijasida Qo'qon Orol dengizidan Xitoygacha qog'oz ta'minoti bilan shug'ullanuvchi monopoliyaga aylanib qolgan, desak xato bo'lmaydi. Qo'qon qog'oz Koshg'ar, hattoki Shimoliy Afg'onistonga ham olib borilgan. Qog'oz ustaxonasi Qo'qon shahrining Mo'yi Muborak darvozasi orqasidagi maqbara yonida joylashgan. Qog'oz juvozi oddiy saroydan iborat bo'lib, sathi 25 – 30 kvadrat metr, ayvonning bir tomonida juvozxona, boshqa tomonida qog'oz xamiri uchun katta moslama joylashgan. Usta o'z xalfalari yordamida bir kunda 300 varoq qog'oz tayyorlagan. Qo'qondan tashqari boshqa joylarda ham qog'oz ishlab chiqarilardi. Ammo, Qo'qon qog'oz o'zining sifati va ko'pligi bilan ulardan ancha ustun bo'lgan. So'nggi o'rta asrlarda O'rta Osiyolik olimlar, tarixchilar, shoirlar o'z asarlarini Qo'qon qog'ozida yozishadi. Bu qog'ozlardan devonxonada ham keng foydalanilgan. Mahalliy qo'lyozma asarlar va turli xil diplomatik hujjatlar Qo'qon qog'ozida yozilgan. Bu haqida XIX asr boshlarida Toshkentda bo'lgan Sibir kazaki Maksimov

ham o‘z xotiralarida “... qog‘oz Qo‘qon va Toshkentda tayyorlanadi” deb ma’lumot qoldiradi [13:28-b]. Qo‘qon qog‘ozining hajmi uzunligi 58 sm, eni 50 sm bo‘lgan. Uning 240 varog‘i 1 bog‘ bo‘lib, birinchi navi 6 rubl, ikkinchi navi 4 rubl va uchinchi navi 3 rubl turgan [14:147-b].

Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyo xonliklari, Xitoy, Hindiston, Eron, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan karvon yo‘llari orqali bog‘langan bo‘lib, xonlik ular bilan qizg‘in savdo munosabatlari kirishgan. Rossiyaning Qo‘qon xonligi bilan savdo-siyosiy munosabatlari O‘rta Osyoning boshqa xonliklariga nisbatan biroz sust rivojlangan. Bu esa xonlikning Rossiyadan anchagina uzoqligi va Toshkent bekligi bilan ajralib turishi bilan bog‘liq. Rossiya bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi qizg‘in siyosiy-savdo munosabatlari XIX asrning ikkinchi o‘nyilliklaridan boshlab o‘rnatala boshlandi. Qo‘qon xonligining chet davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari masalasi rus elchilari va sayyohlari hisobotlarida, hamda maxsus asarlarda ham o‘z aksini topgan[3:134-b].

Xususan, 1813-yili Sibir korpusi tarjimoni Filipp Nazarov maxsus topshiriq bilan Qo‘qonga keladi. Ya’ni, Petropavlovskda Peterburgdan kelayotgan Qo‘qon xoni elchisining o‘ldirilishi natijasida kelib chiqqan mojaroni hal qilish maqsadida Filipp Nazarov 1813 – 1814-yillarda Qo‘qon xonligiga qilgan sayohati natijasida, 1821-yilda “Zapiski o nekotorix narodax i zemlyax sredney chasti Azii” asarini yozadi. Asar tarixiy-etnografik xarakterga ega bo‘lib, unda qo‘qonliklarning Koshg‘ar, Xitoy, Xiva, Buxoro va Sharqiy Eron bilan savdo aloqalari haqida xabar berilgan[3:96-b]. U Qo‘qon xonining elchilarini qabul qilish marosimida ishtirok etib, qabul marosimi paytida Xitoy, Xiva, Buxoro va boshqa o‘lkalar elchilarini ko‘rgan[18]. F.Nazarov O‘ratepa shahri haqida yozib, u yerda aholi loy (paxsa – A.B.) uylarda yashab, xonadonlarida pux ro‘mollar to‘qiydi, deb e’tirof etadi. Asarda O‘ratepa aholisi turkmanlar, eroniylar, Buxoroga qarashli bo‘lgan joylardagi ko‘chmanchi arablar bilan savdo qilishadi deb ta’kidlanadi.

Qo‘qon xonligi va Xiva xonligi o‘rtasidagi savdo aloqalari birmuncha sust edi. Bu ikki davlat o‘rtasidagi savdo-sotiq ishlari Buxoro amirligi orqali olib borilaredi. Xivadan Buxoroga borgan savdogarlar Qo‘qondan kelgan mollarni, Qo‘qon savdogarları esa Xiva mollarini sotib olar edilar. Xiva bilan Qo‘qonning o‘zaro savdosi Sirdaryoning quyi tomonidan, ayniqsa Oqmachitda, 1814-yildan keyin esa, Qo‘qon xonligi harbiy baza va chegara shaharlari sifatida qurdirgan Qo‘shqo‘rg‘on, Chimqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on tomonlarida bo‘lar edi.

Qo‘qon Buxoro bilan yaxshi savdo aloqalarini o‘rnatgan. Buxorodan Qo‘qonga bo‘yoq, ip gazlama, shu jumladan Mashxaddan olib keladigan ingliz materiallari keltirilib, bu mahsulotlar mahalliy savdogarlarga 12-13 oy muddatga qarzga berilardi. Qo‘qonga Buxorodan yana oz miqdorda bo‘lsa ham hind attorlik mahsulotlari va Qobulning to‘n va sallalari keltirilar edi[3:137-b].

Toshkent shahri Qo‘qon xonligining muhim madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri edi. Toshkent orqali qo‘shni davatlar – Buxoro amirligi va Xiva xonligi, Xitoy, Afg‘oniston, Hindiston va Rossiya bilan savdo-sotiq amalga oshirilgan. Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon va Xo‘janddan Toshkentga ipak, ipakli kiyimliklar, shoyi ro‘mollar, turli gilam, qog‘oz, Buxorodan ip va ipakli kiyimliklar, chit, sallalik mato kelar edi. Toshkentga kelgan turli mollarning bir qismi boshqa tomonlarga, jumladan, Rossiyaga olib borilgan.

Xonliklar o‘rtasidagi savdo-sotiq ishlari oltin, kumush va mis tangalar orqali amalga oshirilgan. Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi pul birliklari deyarli bir-biriga o‘xshash bo‘lgan [16:46-b].

1826-yili “Aziatskiy Vestnik” jurnalida e’lon qilingan maqolada Qo‘qon aholisi paxta va ipak yetishtirish bilan shug‘ullanishi, qo‘qonliklar Xitoy, Xiva va Eron bilan savdo qilishi haqida ma’lumot berilgan [11:230-b].

Qo‘qon xonligining Sharqiy Turkiston bilan savdo munosabatlari jadal rivojlangan. Ular o‘rtasidagi savdo Koshg‘ar orqali amalga oshirilgan. Qo‘qon bilan Koshg‘ar o‘rtasidagi savdo aloqalari Muhammad Alixon (1822 – 1842) davrida Qo‘qon xonligining Sharqiy Turkiston bilan chegarasida bir nechta qo‘rg‘onlar (Daraut-Qo‘rg‘on, Qizil-Qo‘rg‘on, So‘fi-Qo‘rg‘on) qurilganidan so‘ng juda keng rivojlangan. 1831-yili Qo‘qon bilan Xitoy o‘rtasida tinchlik sulhi imzolangan. Pekinning 1828-yildagi Qo‘qonga qarshi iqtisodiy sanksiyasi va savdoni taqiqlash to‘g‘risidagi hujjat bekor qilinadi va 1832-yil 13-yanvardagi imperatorning maxsus farmoni bilan Koshg‘ardan nafaqat choy va ravoch olib ketishga ruxsat beriladi, hattoki Koshg‘arda Qo‘qon savdogarlariga bojsiz savdo qilishga ijozat berilgan. Koshg‘arning oltita shaharlari – Oqsu, Koshg‘ar, Uchturfan, Xo‘tan, Yorkand va Yangihisorda Qo‘qon savdogarlaridan boj yig‘ish uchun Qo‘qon xoni maxsus oqsoqollarini tayinlagan. Shunday qilib, shu davrdan boshlab,

qo‘qonliklar Koshg‘ar bilan savdoda monopol mavqega ega bo‘lganlar.

1838-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Buxorodan Kobulga juda ko‘p mahsulotlar jo‘natilgan. Ular orasida Qo‘qonning kumush tangalari va kumush yombilari, xitoy shoyi ro‘mollari va chinnisi, Qo‘qon kanop losi ham bo‘lgan. Buxoro Qo‘qondan xom ipak va kanop losi olgan, bu mahsulotlar so‘ng Afg‘onistonga sotilgan, Qo‘qon va Xo‘janddan guruch ham keltirilgan. Bu ma’lumotlar, birinchidan, Qo‘qonning Buxoro amirligi bilan savdo munosabatlari haqida, qolaversa xonlikning Buxoro orqali Afg‘oniston bilan savdo aloqalariga kirishganligi to‘g‘risida daliliy ashayolar hisoblanadi [15:426-b].

Qo‘qonning asosiy savdo sheriklaridan biri Toshkent (beklik davrida) hisoblangan. O‘rtal Osiyoning sharq davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarida Toshkent shahri azaldan alohida mavqega ega bo‘lgan. Toshkent 2000-yildan ortiq tarixga ega bo‘lib, dastlabki ma’lumotlar qadimgi sharq manbalarida miloddan avvalgi II asrdan tilga olina boshlaydi. Rus manbalarida Toshkent shahri XVI asrda Tashkura nomi bilan “Kniga Bol’shogo Cherteja” ga ham kiritilgan. XVI asrning ikkinchi yarmida Toshkent Buxoro xonligiga qo‘shib olingan. O‘rtal asrlarda Toshkent o‘z mahsulotlari bilan mashhur bo‘lgan. Mahmud ibn Vali Toshkentdan olib ketiladigan mahsulotlar haqida yozib, qalmiq asirlari, dorivor o‘simpliklar, jumladan, qon ketishini to‘xtatishda qo‘llaniladigan o‘simpliklar haqida, eslaydi [10:57-b]. Bu dorilar Xitoyga ham eksport qilingan. Mahmud ibn Vali o‘z asarida darmana deb ataluvchi ko‘pyillik yarim buta haqida ma’lumot berib, uning barglarida va gul to‘dasida terpenoid santonin bo‘lib, uning gjijjani yo‘qotadigan xususiyatga ega ekanini bayon qiladi. Darmana Toshkentdan ko‘plab Yevropa mamlakatlari olib borilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, XVIII asrning 30-yillarda savdogarlar Toshkentda o‘sadigan darmana urug‘ini Eron va Turkiyaga, Turkiyadan esa G‘arbiy Yevropa davlatlariga olib borishgan [6:97-b].

XVII – XVIII asrlardan boshlab Toshkentning Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalari rivojlana boshlaydi. Toshkent savdogarları tez-tez Sibir shaharlariga borib turishgan. 1739-yilda Orenburgdan Toshkentga birinchi rus savdo karvoni keladi. XVIII asrning 2-yarmiga kelib mustaqil Toshkent bekligi tashkil topadi. XIX asrda Toshkent o‘z mustaqilligini yo‘qotib Qo‘qon xonligiga bo‘ysindirilgan. XVIII asrning 2-yarmida O‘rtal Osiyo xonliklarining Rossiya va Qozog‘iston bilan savdo aloqalari rivojlangan sari Toshkent shahri savdo aloqalari markaziga aylana boshlaydi. Shu davrda Toshkent shahri hunarmandchilik sohasiga qarab quyidagi mahallalarga bo‘lingan: pichoqchi, misgarlik, sog‘bon-itboqar, o‘qchi, konchi, degrizon-qozon yasovchilar, Taxtapul, Sebzor, Labzak, Qorasaroy mahallalari aholis bog‘dorchilik, hunarmandchilik va boshqalar bilan shug‘ullangan. Oxunguzar, Parchabof, Jangoh aholis hunarmandchilik, to‘quvchilik va savdo bilan shug‘ullangan. Toshkentlik to‘quvchilar bo‘z, beqasam, olacha, baxmal to‘qishgan va savdogarlar bu mahsulotlarni qo‘shni mamlakatlarga olib borib sotishgan.

O‘rtal Osiyolik, ayniqsa, qo‘qonlik va toshkentlik savdogarlar Rossiyadan Sharqiy Turkistonga rus mahsulotlarini keltirib sotishda vositachilik ham qilishgan. Ch. Valixonov “rus mahsulotlarining Koshg‘arga Qo‘qon va G‘ulja orqali keltirilib sotilishi haqida ham xabar beradi. Koshg‘arga quyidagi rus mahsulotlari: movut, turli-tuman matolar, salsa uchun ishlataladigan harir mato, ipak gazlamalar, parchalar, Rigada ishlangan duxobalar, oynalar, qalampirmunchoq, novshadil, simob, qizil tusdagi bo‘yoq, turli-tuman metallar (temir, mis, qalayi) va metall buyumlar (samovar, choynak, likobcha, tog‘oralar, qozonlar, patnislar, shamdonlar, tugmalar, ko‘zoynaklar, cho‘michlar, qulf-kalitlar, qalamtaroshlar) va boshqalar olib borilgan. Darhaqiqat, Sharqiy Turkiston savdosi qo‘qonlik va buxorolik savdogarlar qo‘lida to‘plangan [21:205-206-b].

Toshkentda birnecha karvon saroylar bo‘lib, ularda turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar to‘xtashgan, jumladan Sayidazim, Nurmuhammad Qo‘shbegi, Namangan va boshqalar. A.P. Xoroshxin Toshkent shahrida 29 ta karvonsaroy borligini eslatadi. U shahar bozoridagi mahsulotlar sotiladigan rastalar sonini ham qayd etgan [20:77-b].

Tarixdan ma’lumki, O‘rtal Osiyodagi shaharlar kabi Toshkent ham Sharq bilan G‘arbni bir-biriga bog‘lab turuvchi Buyuk ipak yo‘li ustida joylashgan. Karvon yo‘li Koshg‘ardan O‘sh orqali Toshkentga kelgan. Toshkent O‘rtal Osiyoning muhim shaharlaridan biri hisoblanib, Qo‘qonning Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachilik rolini ham o‘tagan. Shu bilan birga rus hukumati Toshkent orqali O‘rtal Osiyo xonliklari va hattoki ular orqali Xitoy bilan ham savdo qilishga harakat qilgan.

Rossiya davlati Toshkent orqali Qo‘qon xonligi bilan savdo va diplomatik aloqalar o‘rnatishdan manfaatdor bo‘lgan. Chunki Rossiya Toshkent va Qo‘qon orqali Koshg‘arga ham chiqishi mumkin edi. Rossiya Sharqiy Turkiston bilan bo‘ladigan savdo aloqalarida toshkentlik savdogarlarning vositachilik rolini ko‘ra bilgan. Ruslar toshkentliklarning Koshg‘ar mahsulotlarini Qo‘qon orqali Rossiyaga yetkazib berishlaridan katta foyda ko‘rgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, XVIII asr oxirlarida Semipalatinsk bojxonasi

hujjatlarida Rossiyaning Sharqiy Turkiston bilan aloqasida toshkentlik savdogarlar rolining ortib borganini aks ettiruvchi ma'lumotlar uchraydi.

Fikrimizning tasdig'i sifatida XVIII asr oxirlarida, ya'ni 1791-yil noyabr oyida Yamishevga quyidagi mahsulotlar olib borilgan: 612 rubl 50 kopiklik 19 pud 30 funt Toshkent oq qog'ozi, 814 rubl 70 kopiklik 894 arshin guldar va yo'l-yo'l Toshkent matosi, 9735 arshin Toshkent pardasi, 799 dona Toshkent choponi, chakmon, ko'k zenden. 1792-yil oktabr oyida Yamishevga quyidagi mahsulotlar keltirilgan: 22 rubl 64 kopiklik 38 (o'lchov birligi ko'rsatilmagan) tuya juni, 1.479 rubl 20 kopiklik 1301 bosh qo'y, 3902 rublik 344 bosh ho'kiz, 4 bo'lak toshkent oq bo'zi, 119 bo'lak ko'k bo'z va boshqalar. O'sha yili Toshkent mahsulotlari bilan birga Xitoy va Sharqiy Turkiston mahsulotlari ham, jumladan, 17 rublik 17,5 (og'irligi noma'lum) dur, 1 rubl 80 kopiklik 18 funt qora choy, 1 rubl 50 kopiklik 10 funtlik taxta choy, 5 rublik 15 funt ko'k choy va boshqalar olib kelingan [23:140-b].

Semipalatinskda toshkentliklarning hovlilari bo'lib, unda Xitoy, Koshg'ar, Toshkentdan olib kelingan mahsulotlari rus mahsulotlariga ayrbosh qilingan. Savdo-sotiq mol ayrboshlash yo'li bilan amalga oshirilgan va naqd pulga ham sotilgan.

Qo'qon xonligining O'rta Osiyo mintaqasidagi siyosiy jarayonlar va o'zaro munosabatlarga faol aralashuvi Umarxon davridan boshlanadi. O'z darvida Umarxonning elchilari Xiva, Xitoy va Turkiya davlatlariga jo'natilganligi ma'lum [23:120-b].

XIX asr o'rtalariga taalluqli ma'lumotlarga ko'ra, Qo'qondan va xonlikning boshqa shaharlaridan haryili Toshkentga 16 ming tuya mol kelgan. Shundan 4 ming tuya paxta, 200 tuya yigirilgan ip, 10 ming tuya ip gazlama, yarim ipak va ipak matolar, chopon, ko'rpa, chalvor (teridan tikilgan) va boshqalar, qolgan 2 ming tuyada ho'l mevalar keltirilgan. Haryili chetdan mol kiritish 4580 ming rublgacha yetgan. Qo'qonga va xonlikning boshqa shaharlariga Toshkentdan ko'proq rus mahsulotlari keltirilgan. Chunki Rossiya bilan savdo Toshkent orqali amalga oshirilgan. Qo'qon bilan Toshkent o'rtasidagi savdo aylanishi bir yilda taxminan 7 mln. rub.ni tashkil qilgan. Toshkent bilan Qo'qon oralig'idagi masofaning yaqinligi toshkentlik savdogarlarning jo'shqin savdo qilishlariga katta imkoniyat bergen. yillik mahsulot aylanishi hisobga olinsa, Toshkent savdogarlarning Qo'qon bilan aloqalari muhimroq bo'lgan.

Qo'qon xonligi azaldan Qozog'istonning janubiy va janubi-sharqiy tumanlari bilan an'anaviy savdo aloqalari o'rnatgan. Qo'qon savdogarlari chopon, ko'rpa va turli xil matolarni qozoq ko'chmanchilarining chorva, teri, yog', jun va mo'ynalariga ayrbosh qilganlar [12:186-b].

XIX asrning 20–30-yillarida Qo'qon hukmdorlari Janubiy Qozog'istonda bir qator qal'alar, jumladan, Yangi-Qo'rg'on, Julek, Din-Qo'rg'on, Oq-Machit, Qamish-Qo'rg'on, Avliyo-Ota va boshqalar qurgan edi. Ularning har birida harbiy qismlar, masjidlar, ombor va temirchilik ustaxonalari, savdogarlar uchun uylar, do'konlar va bozorlar bunyod qilgan.

Qo'qon savdogarlarning qozoq cho'llariga keltiradigan mahsulotlarining aksariyatini ip gazlama va quritilgan mevalar tashkil qilgan. Meva qoqilari cho'l hududlariga har yili 15 minggacha tuyada, ip gazlama esa 3 minggacha tuyada keltirilgan. G. Kolmogorovning ma'lumotlariga ko'ra, har bir qozoq oilasi tayyor kiyim boshni Buxoro, Qo'qon va Xitoydan sotib olgan [7:159-b].

Manbalarda ta'kidlanishicha, O'rta Osiyo savdogarlari o'z mahsulotlarini mayda va yirik qoramollarga ayrbosh qilganlar. Masalan, har yili Toshkentga 200 ming bosh, Qo'qonga 100 ming atrofida va Buxoroga 100 ming bosh qo'y haydab borilgan. Mol ayrboshlashda qo'y muomala vositası (pul o'rnida) hisoblangan. Qo'y narxi 1 rub 50 kopdan 20 rub kumush pulgacha baholangan [1:113-b].

1852-yil fevral-may oylarida rostovlik savdogar S.Y.Klyucharev Toshkentda bo'lib, o'zi shohidi bo'lган voqealarni kundaligiga yozib borgan. V.V.Velyaminov-Zernov kundaligidan foydalanib, uni izohlar va qo'shimchalar bilan boyitib "Istoricheskiya izvestiya o Kokandskom xanstve, ot Muhammeda-Ali do Xudayar-Xana" asarini yozgan [5:364-b]. Kundalikda keltirilgan dalillar ko'proq xonliklar o'rtasidagi siyosiy aloqalar va savdo munosabatlarini yoritishga yordam beradi. Jumladan, 3 va 29 aprelda Buxorodan Toshkentga savdo karvonlari kelgan. 3 aprelda kelgan karvondagi mahsulotlarning aksariyati opium bo'lgan. Kundalikda "savdogarlar, G'ulja, Chuguchak, Koshg'ar va Xitoyning barcha chegara shaharlarida bu mahsulotdan foyda ko'pligini bilganliklari uchun hamma opiumni o'sha zahotiyoq naqd pulga sotib olishdi", – deb yozilgan edi [5:364-b].

O'sha kezlarda Toshkentda qo'qonlik savdogarlar ham bo'lishgan. Toshkentga qozoqlar cho'ldan chorva mollari haydab kela boshlashgan va bir kunda 20.000 ta qo'y sotilgan. 8-aprelda Toshkentdan Troitsk va G'uljaga karvon jo'nagan. G'uljaga ketgan karvonda oltin (quyma va pul holida) va opiumdan

boshqa mahsulot bo‘lmagan ekan. 13-aprelda Toshkentdan Troitsk, Petropavlovsk, Buxoroga, 15-aprelda esa Petropavlovsk va Semipalatinskga karvon jo‘nagan [5:114-b].

V.V. Velyaminov-Zernov asaridan shu narsa aniqlanadiki, Toshkent O‘rtta Osiyo xonliklari o‘rtasidagi, qolaversa, Rossiya bilan Qo‘qon o‘rtasidagi, Qo‘qon xonligining Xitoy bilan savdo aloqalaridagi markaziy vositachi shahar hisoblangan. Ammo, Toshkentdagi notinchlik oqibatida Toshkentga kelayotgan karvonlar kam mahsulot keltirib, aksincha ko‘proq mahsulotlar olib ketishgan.

A.P. Teterevnikovning ma’lumotlariga ko‘ra, XIX asrning 60-yillarda savdogarlar Toshkentdagi umumiyy savdo mablag‘ini 10.000.000 rubl bo‘lishi mumkin deb taxmin qilganlar [17:56-b].

Qo‘qon xonligining Koshg‘ar bilan savdo munosabatlari xuddi Buxoro amirligi kabi bo‘lib, Koshg‘ardan Qo‘qonga afyun, chinni idishlar, kumush, xitoy ipak matolari, tola va gilamlar olib kelingan. Qozoq juzlarining Rossiyaga tobe etilishi hukmdor tabaqalar o‘rtasidagi o‘zaro urushlarning to‘xtashiga sabab bo‘ldi va bu holat O‘rtta Osiyoning, jumladan, Qo‘qon xonligining Sibir, Ural, Volgabo‘yi bilan savdo aloqalariga keng yo‘l ochdi.

Xonlik Hindiston bilan ham muntazam savdo aloqalarini olib borgan. Manbalar ma’lumotlariga ko‘ra, Hindistondan yiliga Qo‘qon, Toshkent, Buxoro va Koshg‘arga Kobul orqali 10.000 dan 15.000 tuyagacha mahsulot yuborilgan. Ular orasida ip gazlamalar, ipak, echki juni, otlar va boshqalar chiqarilgan. Otlar savdoning katta foyda keltiradigan manbalaridan biri bo‘lgan. Hind savdogarlarining xonlikdagi shaharlarda yashab tijorat va hatto sudxo‘rlik bilan shug‘ullanganliklari haqida ham ma’lumotlar bor. Xonlikdagi savdogarlar Buxoro va amirlik chegaralaridagi shaharlar bilan muntazam savdo aloqalari olib borganlar. Har ikkala davlatning savdogarları savdo ishlarida faol ishtirok etib, qo‘qonlik savdogarlar Buxoro amirligiga xo‘jalik hayotda zarur bo‘lgan rus temiri, po‘lat va cho‘yandan yasalgan buyumlar, tamaki, ro‘mol, guruch va ba‘zi xitoy yoki mahalliy ipak gazlamalari, choy, chinni idishlar olib borishgan bo‘lsa, buxorolik savdogarlar esa Qo‘qonga hind choyi, surp mato, harir, buyoq, afyun (taryok), zardo‘zlik mahsulotlari, ip va gazlama olib kelishgan [17:56-b].

Rus chiti Buxoroning Qo‘qon xonligi bilan savdosida alohida o‘rin egallagan. Bu mato Orenburg yoki Petropavlovskdan Kazalinskka, undan Buxoro, Samarqand va Xo‘jand orqali Qo‘qonga olib kelingan. Shuningdek, xonlikda Mashhaddan olib kelinadigan ingliz gazlamalari, oz miqdorda bo‘lsa ham Kobulning to‘n va sallalari, hind attorlik mollari ham keltirilgan.

Savdo aloqalarining doimiy, bir meyorda davom etishi va rivojlanishi transport hamda karvon yo‘llarining ahvoliga bog‘liq bo‘lgan. Bu o‘rinda Qo‘qon bilan Buxoro o‘rtasidagi savdo aloqalari alohida mavqega ega edi. Ular o‘rtasidagi karvon yo‘li tekis bo‘lib, mahsulotlarni tashishda aravalardan foydalilanilgan. N.V. Xanikovning bergen ma’lumotlariga ko‘ra, ikkita asosiy Qo‘qon karvonining birinchisi Buxoroga yozning boshida va ikkinchisi kuzning oxirida kelgan, kichik karvonlar esa yil davomida qatnab turgan [1:120-b]. Qo‘qonliklar Buxoroga mahalliy hunarmandchilik buyumlaridan tashqari, Xitoy mahsulotlari – choy, kumush yombi, chinni buyumlar va marjon hamda boshqa rus mahsulotlarini olib kelgan [19:175-b]. Qo‘qondan Buxoroga eksport qilinadigan asosiy mahsulotlar ipak va ipak gazlamalar bo‘lib, har yili 8 ming pudgacha keltirilgan. Eng sifatli ipak “chilla” deb atalib, u Qo‘qonda ishlab chiqarilgan.

Qo‘qon bilan Buxoro o‘rtasida yaxshi savdo aloqalari o‘rnatalgan. Qo‘qon mahsulotlari nafaqat Buxoro bozorlarida, hattoki Buxorodan Kobulga olib borib sotilgan. Qo‘qon ipagi sifati jihatidan Buxoro ipagidan ustun turgan. Shuning uchun uning narxi bir pudi 16 tillo, Xo‘jand ipagi esa 15 tillo turgan [15:414-b].

Buxoro bozorlarida choy, chinni idishlar, qisman xitoy va qo‘qon ipak gazlamalari va ko‘plab rus temir, cho‘yan va po‘lat buyumlari sotilgan. Toshkentning Sibir chegaralariga yaqinligi toshkentlik savdogarlarga qisqa muddatda o‘z mahsulotlarini Buxoro bozorlariga yetkazib berishga imkoniyat bergen. Bu temir, cho‘yan va po‘lat buyumlarning kattagina qismi Xisor, Badaxshon, Xulm, Maymand va boshqa joylarga toshkentlik va xivalik savdogarlar tomonidan olib borib sotilgan [19:175-b].

Qo‘qondan Hindistonga va Afg‘onistonga “chilla” deb ataluvchi ipak gazlamasi olib ketilgan. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, xuddi Buxoroda bo‘lganidek Qo‘qonda ham hindlar va afg‘onlar yashagan bo‘lib, ular Qo‘qon-Buxoro aloqalarida muhim rol o‘ynagan. Ma’lumotlarga ko‘ra, ular Buxoroda 70 ga yaqin bo‘lishgan.

Qo‘qon Buxoro orqali Hindiston bilan savdo qilgan. Jumladan, Peshavordan Buxoro orqali Qo‘qonga ingliz-hind mahsulotlari keltirilgan. Peshavordan Kobul, Qarshi, Samarqand va Qo‘qon yo‘li orqali O‘rtta

Osiyoga har yili 10 – 15 ming tuyada mahsulotlar keltirilgan. Keltirilgan mahsulotlar asosan oq mal-mal, gul tikilgan ko‘ylaklik matolar, shakar, indigo, qalin surp va chitlardan iborat edi. Peshavordan O‘rta Osiyoga keltirilgan 10 – 15 ming tuyadagi mahsulotlardan 1000 tuyasi bombey choylari bo‘lgan.

Hindistonda Qo‘qon ipagiga talab katta bo‘lgan. Har yili Qo‘qondan Buxoro va Hindistonga 1000 tuyada ipak jo‘natilgan. XIX asrda O‘rta Osiyo xonliklaridagi savdoni qo‘lga kiritish maqsadida inglizlar mahsulotlarini Buxoro va Qo‘qon xonliklariga tarqatish yo‘llaridan biri sifatida [17:53-b]. Shimoliy Hindistondagi Peshavor yaqinida yashaydigan hindistonlik musulmonlar yordamidan foydalanishgan. Ular parachlar deb atalgan Ingliz savdogarlari o‘z mahsulotlarini uch - yil muddat bilan “parachlarga” qarzga bergan, o‘z navbatida parachlar mollarini Buxoro va Qo‘qonda qarzga (nasiyaga) sotishgan. Parachlarning ba’zilari Buxoro va Qo‘qonda joylashib olganlar va shu yo‘l bilan ingliz mahsulotlarini kengroq yoyishga harakat qilganlar.

Ingliz mahsulotlari O‘rta Osiyoga ikki yo‘l bilan, ya’ni Kobul va Mashhad orqali kirib kelgan. Toshkentga esa bu iahsulotlarni u yer bilan doimiy muomalada bo‘lib turgan hindlar olib kelganlar. Hindlar ingliz mahsulotlari bilan birga mahalliy hind mahsulotlarini ham keltirishgan. Muallifning aytishicha, ularning asosiy ishi sudxo‘rlik bo‘lgan. A.N.Teterevnikov, keyingi vaqtida Toshkentga ingliz mahsulotlari kam keltirilayotgani, faqat ilgari olib kelingan mahsulotlardan qolganlarigina sotilayotganini ko‘rganini yozadi.

Demak, hindlar nafaqat Buxoro yoki Samarqandda, balki Toshkentda ham sudxo‘rlik bilan shug‘ullangan bo‘lishi va 1865-yili Toshkentning Rossiya tomonidan ishg‘ol qilinganidan so‘ng ingliz mahsulotlari keltirilganligini ko‘rmagan bo‘lishi mumkin.

Teterevnikov Angliyadan ingliz mahsulotlarini keltirish yo‘llari haqida ma’lumot berib, bir tomonidan, mahsulotlarning suv yo‘llari orqali juda qulay olib kelinishini ta’kidlasa va aksincha, Peshavordan Buxoro va Qo‘qonga juda qiyinchilik bilan kirib kelishini ma’lum qiladi. Muallif mayda hokimlar tomonidan hududidan o‘tganligi uchun olinadigan soliqlar oqibatida savdogarlar ko‘p mablag‘larini yo‘qotishlarini haqli ravishda e’tirof qilgan. Peshavordan Kobulgacha bitta tuya mahsulotni olib kelishi 2 tillo (8r.20 k.) ga, Kobuldan Buxorogacha 16 tillo (60r.80 k.) ga tushgan [17:53-b]. A.Teterevnikov savdo karvonining yo‘nalishini quyidagicha belgilagan: Peshavor-Jalolobod-Kobul-Sarichashma-Xulm-Bamian-Balx-Kerki. Kerkida savdo karvonlari ikkiga bo‘linadi, ya’ni, Qo‘qon va Toshkentga boradigan karvonlar Samarqandga, qolganlari esa Buxoroga yo‘l oladi. Zakot ikki barobar oshirilgani uchun bu yo‘l noqulaylik tug‘diradi. Shu yo‘l bilan O‘rta Osiyoga har yili 10 – 15 ming tuyada mahsulotlar olib kelinadi. Bu mahsulotlar ko‘proq salsa uchun ishlataladigan oq doka, gulli ko‘ylaklik mato, shakar, indigo – nil bo‘yog‘i, kolenkor (oqartirilgan dag‘al surp) va chitlar bo‘lgan [17:122-b].

Teterevnikov savdogarlarning ma’lumotiga tayanib, Peshavordan keltirilgan mahsulotlarning yarmi Xo‘jand orqali Qo‘qon xonligiga qarashli shaharlarga, 2000 tuyadan oshmagan mahsulotlar esa Toshkentga keltiriladi, deb yozadi. Demak, agar O‘rta Osiyoga jo‘natilgan 10 – 15 ming tuya molning yarmi 5 – 7 ming tuya bo‘lsa, shundan 2 mingi Toshkentga jo‘natilsa, u holda Qo‘qon xonligi shaharlariga 3 – 5 ming tuya mol keltirilgan bo‘ladi. Keltirilgan 10 – 15 ming tuya mahsulotning 1 minggi Bombey choylari hisoblangan. Bu choy Toshkentga ham keltirilgan bo‘lib, aholi choyning ta’mi haqida yaxshi baho berishmagan. Choy ko‘rinishi jihatidan G‘ulja va Chuguchak choylaridan farq qilmagan, lekin ta’mi unga nisbatan pastroq, ya’ni bemaza bo‘lgan. Shuning uchun uning narxi boshqa choylarga qaraganda uch barobar past yurgan. Teterevnikovning fikricha, O‘rta Osiyoga keladigan ikki savdo yo‘lidan faqat Kobul yo‘li orqali mahsulotlar Qo‘qonga keltirilgan bo‘lsa, Mashhad yo‘li orqali esa Buxoroga keltirilgan.

O‘rta Osiyo va Buxorodan Hindistonga ipak, echki tiviti, nasha va tillo, hamda otlar haydar ketilgan. “Avvallari Qo‘qon va Buxorodan Hindistonga 1000 tuyagacha ipak olib ketilgan, lekin endilikda” deb yozadi Teterevnikov, – ipak narxi tushib ketganligi sababli umuman kam olib ketilmoqda” [17:55-b]. Muallif Toshkentdan jo‘natilgan rus mahsulotlarining Kobulga yetib bormayotganligidan tashvishlanadi, chunki bu mahsulotlar ularning talabiga javob bermagan. Albatta, Kobulda va boshqa joylarda juda tez sotilgan turonliklarning “latta” deb ataladigan ipak matolari va tillo parchasi bundan istisno. Rus misi Kobulda yaxshi xarid qilingan. Lekin Buxoro amiri afg‘onlar bilan janjallahib qolgani sababli mis va otlarni afg‘onlarga o‘tkazmay qo‘ygan. Ipakdan keyingi o‘rinda Kobulga jo‘natiladigan mahsulot afyun bo‘lib, bir yilda O‘rta Osiyodan 200 tuyagacha afyun ortilgan karvonlar jo‘nagan. Afyun Hindistonga kontrabanda yo‘li bilan keltirilgan va asosan nasha savdosi bilan Qo‘qon xonligi shug‘ullangan. O‘z navbatida Qo‘qon xonligi afyunni Koshg‘ar va Yorkenddan olgan. Qo‘qondan Hindistonga 100 tuyagacha

echki tiviti jo‘natilgan. Hindiston bilan O‘rta Osiyo o‘rtasidagi savdo balansi quyidagicha bo‘lgan. Har yili Hindistonga 12 lak tillo (lak – 100000 zolotix) jo‘natilgan. Ipak og‘irligi 400 chervon, echki tiviti – 25 chervon, bir pud nasha narxi – 50 rublgacha turgan [17:56-b].

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, A.Teterevnikov asosiy e’tiborini O‘rta Osiyo xonliklari, jumladan, Qo‘qon xonligining ichki va tashqi aloqalarini yoritishga qaratgan. U ko‘proq ingliz mahsulotlarining O‘rta Osiyo bozorlariga turli yo‘llar bilan kirib kelayotganligidan va aksincha, rus mahsulotlarining Afg‘onistonga yetib bormayotganligidan tashvishlangan. Teterevnikov O‘rta Osiyo bozorlaridagi ingliz va rus mahsulotlari o‘rtasidagi raqobatni ruslar foydasiga hal qilish yo‘llarini qidirgan.

A.SH.Shomansurovaning yozishicha, har yili Buxoro, Qo‘qon, Toshkentdan Kobul orqali 10 – 15 ming tuyada yuklar 160 – 200 ming pud turli xil mahsulotlarni ortib Hindistonga olib ketilgan. Bu savdoda asosan afg‘onlarning loxaniy qabilasidan bo‘lgan povinda muhim rol o‘ynagan. Povinda bu savdodan katta foyda ko‘rgan [22:12-b].

Qo‘qon savdogarları savdo karvonlari bilan Turkiya va arab mamlakatlariga ham yetib borgan. A.Vamberi ziyyoratga borgan ziyyoratchilar o‘zları bilan “40 dyujina (12 dona) ipak, buxoro ro‘mollari, 2000 atrofida pichoq, 30 bo‘lak namangan ipak matosi, ko‘plab Qo‘qon do‘ppilari” ni olib borganligini ko‘rganligini yozadi [4:372-b].

Qo‘qonning tashqi aloqalarida Qo‘qon-Rossiya savdo munosabatlari ham alohida o‘rin tutgan. Manbalarga ko‘ra, 1861-yildan keyin rus sanoatining jadal rivojlanma boshlagani xomashyo bazasi va tashqi bozorga bo‘lgan ehtiyojning yanada kuchaygani Rossiyaning Qo‘qon bozorini faol egallab, undan cheksiz foydalanishning asosiy sabablaridan biri bo‘lgan. Rossiyadan Qo‘qonga temir, mis, po‘lat, cho‘yan va temir buyumlar, chit va sifatsiz gazlamalar, oz miqdorda baxmal, shakar, oynalar, charm, Rossiyaga tobe bo‘lgan qozoq cho‘llaridan qo‘ylar va uning terisi, charm va charm mahsulotlari, kigiz olib kelingan. Xonlikdan esa Rossiyaga asosan paxta olib chiqilgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlamoq lozimki, Qo‘qon xonligi, Xitoy, jumladan, Sharqiy Turkiston, Hindiston, Eron, Turkiya, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqaları o‘rnatgan. Xonlik ayniqsa, Xitoy, jumladan, Koshg‘ar bilan yaqin savdo munosabatlariga kirishgan. Qo‘qon Koshg‘ar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdo qilishdan tashqari Xitoyning O‘rta Osiyo xonliklari, Hindiston, Eron va Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachi rolini ham bajargan. Qo‘qon karvonsaroylarida Hindiston, Tibet, Koshg‘ar, Buxoro amirligi, Afg‘oniston, Rossiyadan olib kelingan mollar to‘plangan. Mazkur savdo aloqalarida Toshkent muhim o‘rin to‘tganimizdeki bo‘lganligini ham alohida ta’kidlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

- Алимова Р. Ўрта осиё хонликларининг қўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иктисодий муносабатлари. – Т.: 2017.
- Алимова. Р. Сўнгти ўрта асрларда Ўрта Осиё хонликларининг ташки иқтисодий алоқалари. – Т.: 2006. – Б.81.
- Бобобеков Ҳ. Кўкон тарихи. – Т.: “Фан”, 1996. – Б. 134.
- Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – М., 1974. – С.372.
- Вельяминов-Зернов В.В. Историческая известия о Кокандском ханстве, от Мухаммеда-Али до Худаяр-Хана”. – СПб., 1856. – С.364.
- История Узбекистана в источниках. – Т.: 1988. – С. 96-97.
- Колмогоров Г.О. О промышленности и торговле в Киргизских степях Сибирского ведомства //Вестник ИРГО. Т. XIII. 1855. – С. 159.
- Манба: Муҳиддин Муҳиддин. Девони Муҳиддин. – Тошкент: Ҳожи Абдурауф нашри, 1911/м. (ЎзФАШИ нинг тошбосма асарлар фондида №3220 инвентар рақами билан сақланмоқда), 360 саҳифа. Ўзбекча-тожикча, ўзбекча қисми 231-саҳифадан бошланади. Иқтиbos 353-саҳифадан олинди.
- Манба: Муҳиддин Муҳиддин. Тарих. Тожикча насрый асар. ЎзФАШИ қўлёзма асарлар бўлимида №604 инвентар рақами билан сақланаётган нусха. Асар 1318/1900 йилда ёзилган ва муаллиф томонидан шу йилнинг ўзида мусаввада қилинган. Ўлчами 17x21,5 см .
- Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Введение, перевод, примечания, указатели Б.А.Ахмедова. -Т.: 1977. - С. 57.
- О нынешнем состоянии некоторых областей и городов в Средней Азии //Азиатский Вестник. Т. 1. – СПб., 1826. – С. 229-230.

12. Обозрение Кокандского ханства // ЗИРГО, Кн 3. – СПб., 1849. – С.186.
13. Потанин В. Показание сибирского козака Максимова о Кокандском владении // ИРГО. 1860. – С.28.
14. Разводовский В.К. Кустарное производство бумаги в Узбекистане // Советская этнография. – Т.3. М-Л. 1940. – С.147.
15. Сведения о произведениях и торговле Бухарии. Выр. из журнала «Мануфактура и торговли». 1840. Хмыр. Кол. Средняя Азия. – Т. 1. – С.414.
16. Соатов С.С. Узбекистон тарихи. – Т.: “Ўқитувчи”, 1973. – Б. 43-46.
17. Тетеревников А.Н. Очерк внутренней торговли Киргизской степи. – СПб., 1867. – С.56.
18. Филипп Назаров. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – М.: Наука. – 1968.
19. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С.175.
20. Хорошхин А.П. Очерки Тошкента. В кн.: Сборник статей касающихся до Туркестанского края. – СПб., 187
21. Ч.Ч.Валиханов. Собрание сочинений. Т.: 3. Алма-Ата. 1984. – С. 205-206.
22. Шамансурова А.Ш. К вопросу о среднеазиатско-афганских отношений в первой половине XIX в. // Взаимоотношения народов Средней Азии и сопредельных стран Востока в XVIII начале XX в. – Т.: 1963.
23. Юнусходжаева М.Ю. Роль Ташкента в торговле России и Восточного Туркестана во второй половине XVIII в. // Позднефеодальный город Средний Азии. – Т.: “Фан”.1990. – С.140.
24. Abduganievich, B. A. (2023). Establishment of Foreign Political Relations of the Bukhara Khanty during the Ashtarkhanis and Mangit Dynasties. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(10), 1-7.